

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 788 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybulla o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi.....	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шермаматова Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўгли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi	243
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	

Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Furuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqochqorov Ziyadullayevich	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari	312
Olimova Nodira Xamrakulovna	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish.....	324
Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvda faoliyat uzluksizligini baholash.....	331
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий.....	335
Махкамова Надира Саидмуратовна	
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili	340
Otajonova Gulhayo Maqsud qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish	345
Xudoyorov Laziz Niyozovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	
Mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari	351
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilgan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi.....	357
Amonova Dilafroz O'tkurovna	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish	362
Axmedov Miraziz Alisherovich	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari	367
Hamrokulov M. O.	



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalarini faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе	388
Шадиева Дилдора Хамидовна	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	392
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
Tut parvonasi zararkunandasing biologik tarqalishi va zararini oldini olish choralari.....	402
Oybek Toshemirovich Karimov	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish	406
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Ishsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba.....	412
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Takroriy ekinlar urug'ini to'g'ridan-to'g'ri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti.....	418
Abdullayev Baxodirjon Valijon o'g'li	
Banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli.....	422
Abdullayeva Dildora Qudratovna	
Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari	425
Adxamov Samariddin	
Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....	430
Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xo'jaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda.....	435
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari.....	441
Maxamadaliyeva Mahliyoqon Maxamadmurod qizi	
Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari.....	448
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati	453
Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar o'g'li	
Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili	459
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasidan foydalanish	466
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati va o'rni	473
Babanazarova Gulzar Ziautdinovna, Ajibayeva Raiya Maxsudovna	
Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning o'rni	479
Xudayarova Zuxra Yuldashevna	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ.....	482
Бекназова Комилахон Миркамол қизи	
Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari.....	490
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi.....	497
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	



Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....	503
Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна	
Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari.....	509
Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich	
Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане	513
Холдарова Фариза Тухтабаевна	
Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....	519
Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Искандарович	
Efficiency of Internal Audit Service and Report Improvement: Control of Sanatorium-Wellness Institution	528
Shafkarov Fahriddin Khudaiberdievich	
Development of Digital TV Services in the Conditions of Digitalization of the Economy.....	534
Farhad Karimov	
Kichik biznes faoliyatida muhim muvaffaqiyat omillarini belgilashning ahamiyati va ularni baholash.....	538
Kabulova Nurgo'zal Umirbek qizi	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ekonometrik tadqiq etish.....	541
Muminova Maxbuba Abduvafoyevna	
Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash.....	548
Musurmonova Mahbuba Omonovna	
Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini ichki tartibga solishni takomillashtirishning ayrim jihatlari..	552
To'rayev Nurbek Muxammadovich	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili.....	557
Raxmonov G'ayrat Ismatulloevich	
Strategik boshqaruv hisobi va uning uslubiyotini takomillashtirish masalalari.....	562
Sharipova Shoxida Abdinabiyevna	
O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari.....	567
Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlari	574
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning ayrim me'yoriy-huquqiy asoslari.....	578
Turanov M. Sh.	
O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o'rni.....	586
Zubaydullayeva Zulayxo Karimovna, Kaxarova Dildora Erkinovna	
O'zbekistonda tayyor kiyimlar bozori ko'lamini oshirishda marketing strategiyalarining samaradorligi.....	596
Urazov Mansur Musurmanovich	
Yevropaga barqaror eksport va qishloq xo'jaligida yashil rivojlanish uchun Mosh bozori strategiyalarining ta'sirini baholash.....	599
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
Rangli tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonlarini parallelshtirish	605
Xidirova Barchinoy Ilxomovna	
Korxonalarda ishchi personal ehtiyojlarini motivatsiyaga ta'siri	610
Aripov Oybek Abdullayevich, Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ	615
Бекназова Комилахон Миркамол қизи	
Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari.....	623
Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.	
Positioning Textile Products in Competitive Strategy.....	626
Икрамова Нодира Бурхон қизи	



Sanoatni tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash.....	631
Kasimov Azamat Abdukarimovich	
O'zbekiston Respublikasi budgetini shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi.....	638
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
To'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish masalalari.....	645
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
Влияние плодородности почвы на урожайность хлопчатника в хлопково-текстильных кластерах Республики Каракалпакстан.....	650
Сагиева Молдир Оразбай кизи	
Оценка категории вейпов среди курильщиков электронных сигарет Узбекистана.....	655
С. М. Мирзалиев, М. О. Куролов, Г. К. Абдурахманова, Джуди Сметана, Крисси Льюис	
Jahon kabel bozorini tatbiq etish va rivojlantirish xususiyatlari.....	668
Uralov Olimjon Maxammadjonovich	
Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish.....	673
Nomozova Qumri Isoyevna, Abdinazarov Samijon Abbos o'g'li, Jabbarov Azamat Murodullayevich, Boymurodov To'liqin Azamatovich	
Digital Transformation Implementation Directions and Instrument Analysis.....	680
Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
Understanding Financial Indicators and Their Strategic Utilization: Insights from Global Practices and Uzbekistan's Experience.....	684
Astanova Zarnigor Obid qizi, Nomozova Qumri Isoyevna, Jurayev Xurshid Mamatkulovich, Ismatova Kamola Obid qizi	
Turizm xizmatlari eksportida zamonaviy texnologiyalar orqali xizmatlar sifatini oshirishning ahamiyati.....	690
Bakhromov Akmal Abduvahid o'g'li	
Sanoat korxonalarida personal mehnatini tashkil etishni optimallashtirish yo'llari.....	695
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi, Rustamova Dilnoza Jamshid qizi, Axtamova Parizod Oybek qizi, Nuritdinova Maftuna Jahongirovna	
O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish..	701
Kaxharova Dilnoza Shavkatovna	
Bojxona faoliyatini transformatsiyalashda innovatsion boshqaruvni takomillashtirishga oid nazariy qarashlar.....	706
Ro'ziboyev Muhiddin Xushnudovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida aholining tadbirkorlik faolligini oshirish tendensiyalari.....	710
Xudayarova Maftuna Shavkatovna	
O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishda xorijiy va mahalliy investitsiyalarning o'rni.....	717
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
Факторы успеха в управлении инвестициями промышленных предприятий.....	721
Едгоров Сардорбек Самадович	
Issues of minimizing risks related to mortgage lending of commercial banks of the republic of Uzbekistan.....	726
Kulliev Istam Yangimurodovich	
O'zbekiston Respublikasida nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil etish xususiyatlari.....	735
Pardayeva Zulfizar Alimovna	
Tijorat banklari faoliyatida risklarni pasaytirish yo'llari.....	740
Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboyevich	
Investitsiyalar – moliyaviy barqarorlik kafolati.....	746
Xaydarov Nizamiddin Xamrayevich	
Современные подходы к управлению системой заработной платы и льгот в условиях рыночной экономики.....	751
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
Atrof-muhit muhofazasida xulq-atvor iqtisodiyotining roli.....	759
Djalilov Farxod Abduganiyevich	



Eco-Paths of Uzbekistan: How Corporate Social Responsibility in Tree Planting and Transport Infrastructure is Paving the Way For Sustainable Futures.....	763
Oybekov Shohjahon Akmal o'g'li, Alfira Sofia, Yangiboyev Sirojiddin Jo'ramurodovich	
Oliy ta'lim xizmatlar bozorida raqamli marketingning ahamiyati.....	771
Ruziyeva Shaxlo Raupovna	
Sanoatning kon-geologiya korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash xususiyatlari.....	776
Xotamov Javohir Abdusharop o'g'li	
Qishloq xo'jaligi agrotexnologiyalarni tijorat banklari orqali kreditlash yo'llari	781
Isakov J. Ya.	



SANOAT KORXONALARIDA PERSONAL MEHNATINI TASHKIL ETISHNI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LLARI



Dilovarxo‘jayeva Dilnozaxon Shavkatxo‘ja qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi
magistranti



Rustamova Dilnoza Jamshid qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”
mutaxassisligi magistranti



Axtamova Parizod Oybek qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”
mutaxassisligi magistranti



Nuritdinova Maftuna Jahongirovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”
mutaxassisligi magistranti

TARAQQIYOT PROGRESS



Annotatsiya: Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz sanoat korxonalarida personal mehnatini tashkil etish, uni rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlardagi sanoat tarmoqlari va sohalarida amal qilayotgan mehnat resurslarini boshqaruvi tajribalari asosida optimallashtirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Buning uchun, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar korxonasi va tashkilotlarida qo'llanib kelinayotgan inson resurslarini boshqarishning bir qator kontsepsiyalari va modellari chuqur o'rganilgan va ularni mamlakatimiz sanoat korxonalarida personal faoliyati sohalarida tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, inson omili, mehnat resurslari, optimallashtirish, inson resurslarini boshqarish, model, kontsepsiya, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samaradorlik, ishchi kuchi.

Abstract: In this article, in the conditions of the market economy, the ways of organizing personnel work in the industrial enterprises of our republic, optimizing it based on the experiences of the management of labor resources in the industrial sectors and sectors of developed market economy countries are researched. For this purpose, a number of concepts and models of human resource management used in enterprises and organizations of economically developed countries were deeply studied, and proposals and recommendations were developed for their implementation in the fields of personnel activities of industrial enterprises of our country.

Key words: industrial enterprise, human factor, labor resources, optimization, human resource management, model, concept, labor productivity, economic efficiency, workforce.

Аннотация: В данной статье в условиях рыночной экономики рассмотрены пути организации работы персоналов на промышленных предприятиях нашей республики, исследовано ее оптимизации на основе опыта управления трудовыми ресурсами в отраслях промышленности развитых стран с рыночной экономики. С этой целью был глубоко изучен ряд концепций и моделей управления человеческими ресурсами, используемых на предприятиях и организациях экономически развитых стран, и разработаны предложения и рекомендации по их внедрению в сферы деятельности персоналов промышленных предприятий нашей страны.

Ключевые слова: промышленное предприятие, человеческий фактор, трудовые ресурсы, оптимизация, управление человеческими ресурсами, модель, концепция, производительность труда, экономическая эффективность, рабочая сила.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv tizimi samaradorligi sanoat korxonalarida faoliyati natijasi va unumdorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Boshqaruv tizimini sanoat korxonasi faoliyatini tashkil etishiga ta'siri asosan uning ikki sohasida, ya'ni inson resurslarini boshqarishda va operativ boshqarishda (sanoat ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda) sezilarli namoyon bo'ladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda mehnat resurslarini boshqaruviga alohida e'tibor beriladi. Amerikalik olimlar M.X.Miskon va M.Albertlar insonlarsiz tashkilot yo'q. Zarur bo'lgan insonlarsiz hech bir tashkilot faoliyat ko'rsata olmaydi va o'z maqsadlariga erisha olmaydi ^[1], deb e'tirof etishadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida inson resurslarini boshqarishning bir qator kontsepsiyalari va modellari ishlab chiqilgan. Ushbu model va kontsepsiyalar ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri, "inson omili"dan foydalanish hisobiga korxonasi faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, bunda boshqaruvning ustuvorligi va milliy psixologik tamoyillari kabilar mujassamlangan. Masalan, K.R.Makkonell va S.L.Bryular XX asrning 80–90-yillarida AQShda mehnat unumdorligining o'sishi darajasini pasayib borishini tahlil qila turib, uning asosiy sabablaridan biri sifatida institutsional ahamiyatga ega bo'lgan omillarni e'tirof etishadi: ya'ni mehnatni tashkil etish, ichki ishlab chiqarish munosabatlari, boshqaruv xodimlarining oddiy ishchilar bilan muloqoti kabi holatlar unumdorlikka ta'sir qilgan ^[2] deb aytishadi.

Yollanma ishchilarni ish beruvchilardan begonalashuvi, shuningdek, ular o'rtasidagi ziddiyatli holat, ularni ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishlarida ishtirok etishlariga imkoniyat bermaydi ^[3]. Shuningdek, korxonasi va tashkilotlarda xizmatchilarining o'z manfaatlarini bilan firma manfaatlarini uyg'unlashtirilmaydi, oqibatda intensiv va unumli ishlashlari uchun motivatsiya mavjud emas. Menejerlar ishini baholash, motivatsiyalash va taqdirlash maksimal foyda olish uchun qisqa muddatli vazifalarni bajarish bilan belgilangan. Buning natijasida esa uzoq muddatli istiqbollashtirishda mehnat unumdorligini oshirishga kam e'tibor berilgan ^[4]. AQShdan farqli Yaponiyada aksincha, yollanma ishchi-xizmatchilarni aksariyati kafolatlangan ish o'rinlariga ega, shuningdek ular firma qarorlarini qabul qilishda faol ishtirok etishadi, firma foydasidan beriladigan mukofotlar korxonasi manfaati va xodimlar daromadini uzviy bog'liqligini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, adaptiv usullar, innovatsion va integratsion yondashuvlar, xalqaro tajribalar asosida sanoat korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish model va kontsepsiyalar tahlili va aprotatsiyasidan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda hozirgi davrda samarali ijtimoiy mehnat munosabatlarini qaror topishi uchun personalni boshqarishni optimallashtirish metodologiyasi asosini va amaliyotini ishlab chiqish zarur. Sanoat korxonalarida personalni boshqarishni optimallashtirishdan maqsad – xodimlardan unumli foydalanish hisobiga korxonada faoliyati samaradorligini oshirish hisoblanadi. Ushbu bosh maqsad quyidagi kichik maqsadlar yig'indisidan iborat bo'lib, ularga erishish personalni boshqarishni yanada takomillashtiradi:

- korxonada ishchi kuchi sifatini oshirish;
- mehnatni rag'batlantirish hisobiga mehnat unumdorligi va mehnatning yuqori natijadorligi hamda mehnat intensivligiga erishish;
- inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini oshirish.

Yuqorida keltirilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslarini boshqarishni optimallashtirishning uchta asosiy vazifalarini keltirishimiz mumkin:

- personalni shakllantirish;
- personalni rivojlantirish;
- mehnat faoliyati sifatini oshirish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsad va vazifalarga erishish vositasi bo'lib, korxonalarda personalni boshqarish tizimini yaratish hisoblanadi. Bunda shuni e'tirof etish jozki, ushbu tizim inistitutsional yo'nalishda bo'lishi, ya'ni personalni boshqarishning maxsus xizmati, kadrlar bo'limi yoki boshqa maxsus bo'g'in ko'rinishida bo'lishi majburiy emas. Ishlovchilar soni kam bo'lgan korxonalarda personalni boshqarish tizimi tashkilot maqsadiga erishish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi kadrlarni boshqarish vosita va usullarini o'zida mujassamlashi lozim. Korxonada personalni boshqarishni personalni boshqarish bo'yicha menejer yoki korxonada rahbari yoki tadbirkor tomonidan amalga oshiriladi. Ularning qaysi biri boshqaruvni amalga oshirmasin boshqarish usul va vositalari bo'yicha boy tajribaga ega bo'lishi zarur. Biz, personalni boshqarishni optimallashtirish maqsadiga erishish vosita va usullarini boshqaruv vazifalaridan kelib chiqqan holda uch guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Personalni shakllantirish.

- mavjud resurslarni, ehtiyojlarni baholash, kelajak ehtiyojlarini qondirish dasturlarini ishlab chiqishning tarkibiga oluvchi mehnat resurslarini rejalashtirish;
- malakali va qobiliyatli ishlovchilarni suhbat, sinov, test o'tkazish asosida tanlab olish;
- intensiv va natijaviy mehnatni rag'batlantirish uchun ish haqi va boshqa imtiyozlarni belgilash.

2. Personalni rivojlantirish.

- ishlovchilarni tashkilot tartibi, an'analarga tez moslashishini ta'minlash uchun kasbiy va ijtimoiy muhitni yaxshilash;
- ishlovchilarni mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlash maqsadida ularni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- korxonada boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida rahbar- xodimlarni tayyorlash;
- ishlovchilarni xizmat mansablarini oshirib borishni boshqarish, bu holda ishlovchilar mehnati samaradorligi oshadi, ular o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini tashkilot manfaatlarini qondirishga qaratishadi.

3. Mehnat hayoti va sifatini oshirish.

- mehnatning mazmuni va majburiyatini kengaytirish yo'nalishida mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, ishlovchini o'z mehnatidan qoniqishini kuchaytirish maqsadida ularni mustaqil qaror qabul qilishini oshirish, mehnatga qiziqish, shaxsni kamol topishidagi ehtiyojlarini qondirish maqsadida imkoniyatlarni yaratish;
- mehnat shartnomalarini takomillashtirish.

Personalni boshqarishni optimallashtirish yuqorida e'tirof etilgan barcha elementlarni qamrab olishi lozim. Ularni bir nechtasi mamlakatimiz sanoat korxonalarida kadrlar ishida foydalanib kelinmoqda, ba'zilari esa mutloqo yangi elementlardir. Ushbu elementlarni biz o'z tadqiqotimizda tadqiq etamiz va ulardan sanoat korxonalarida personalni boshqarishni optimallashtirish uchun imkoniyatini to'liqroq baholashga harakat qilamiz.

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarida personalni boshqarishni muhim va murakkab vazifasi bo'lib, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini shakllantirish hisoblanadi. Chunki, ushbu tizimni shakllantirish nafaqat ishlovchilarni samarali mehnat qilishlariga, balki shaxsiy va korxonada manfaatlarini uyg'unlashuviga olib keladi. Hozirgi vaqtda ushbu takomillashgan tizimni yaratish va rivojlantirish uchun Yaponiyada ko'proq e'tibor berilmoqda. Bu maqsadda ularda "umrbod ish bilan bandlik" (ko'proq yirik va o'rta sanoat korxonalarida), ish stajiga bog'liq holda ish haqini oshirish, uzluksiz malaka oshirish, ishlovchini ichki mehnat qilish rezervlarini mehnat faoliyatiga jalb qilish asosida mehnatning mazmunini boyitish kabi tizimlar sanoat korxonalarida faoliyatida keng joriy etilmoqda. Shuningdek, ishlovchini sanoat korxonasini ishga kirishib ketishi uchun turli xil uslub va usullardan keng foydalanilmoqda.



Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida sanoat korxonalarida (umumiy ijtimoiy ishlab chiqarishda) yaponlarni personalni boshqarish bo'yicha tajribalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki sotsializm davrida shakllangan ijtimoiy mehnat munosabatlari bir qator elementlarini hozirgi sharoitda yapon savdo menejmenti tamoyillariga moslashtirishga imkon beradi. Yaponlarning personalni boshqarish amaliyoti mamlakatimiz korxonalarida boshqarish tizimida qo'llanishi va shakllantirilishi mumkin, ammo rivojlangan bozor iqtisodiyotli g'arb mamlakatlari, AQSh tajribalarini ham chetda qoldirmaslik kerak. Xususan, AQShda personalni boshqarishda individualizm tamoyili katta o'rin tutadi. Masalan, Amerikalik iqtisodchi olim S.Robinsning^[5] inson resurslarini boshqarish modeli yaponlarni personalni boshqarish kontsepsiyasidagidek tashkilotga (firmaga) sadoqatlik tamoyiliga asoslanadi. Ammo, S.Robins taklif etgan model bo'yicha maqsadga erishish yapon variantidan farq qiladi.

Ijtimoiy muhitni o'zgarishiga mos holda inson resurslarini boshqarish kontsepsiyasida ham o'zgarish sodir bo'la boshladi. Buni AQShdagi inson resurslarini boshqarish kontsepsiyasida ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: AQShda inson resurslarini boshqarish kontsepsiyasi rivojlanishining asosiy bosqichlari¹

Davrlar	Boshqaruv obekti	Ishlovchilarning ustuvor ehtiyojlari	Boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishi
1929-yildagi iqtisodiy inqirozgacha bo'lgan davr	Ishlab chiqarish texnologiyasi, mehnat unumdorligini oshirish	Mehnat sharoitining xafsizligi, yuqori mehnat unumdorligi asosida ish haqini oshirish	Mehnat xafsizligi va uni tashkil etish, yuqori mehnat unumdorligini rag'batlantirish dasturlari
1930–1960-yillar	Iqtisodiy kafolat va ijtimoiy ko'mak	Iqtisodiy va ijtimoiy xafsizlik kafolati	Pensiya taminoti, sog'liqni saqlash va boshqa dasturlar
1960–1970-yillar	Ijtimoiy hamkorlik	Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirokini kengayishi	Boshqaruvda, javobgarlik majburiyatida hamkorlikda qatnashish jarayonini ishlab chiqish
1970–1990-yillar	Mehnatni xarakteri	Mehnat mazmunini qobiliyat va talabga mos kelishi, ishda bir xillikni bartaraf etish	Ishning ketma-ketligi, vazifa va burchlarni birlashishi, mehnatni tashkil etishni jamoa shakli
1990–2000-yillar	Mehnat resurslari harakati	Iqtisodiy pasayish davrida ish bilan bandlik kafolati	Ishchi kuchini qayta taqsimlash, qayta tayyorlash, ish topishda ko'maklashish
2000-yil va undan keyingi davr	Ishchi kuchi tarki-bida tub o'zgarish malakali kadrlar-ning taqchilligi	Doimiy o'zgarib turuvchi sharoitga va ishlab chiqarish talabiga moslashish uchun imkoniyatlarini kengayishi	Inson resurslarini strategik rejalashtirish

Hozirgi vaqtda amerika menejmentining boshqaruv amaliyotida maqsadli dastur usulidan foydalaniladi. Bu uslubning mohiyati shundan iboratki, inson resurslari shakllanganidan so'ng jalb qilish, yollash, ishlovchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash va xizmat munosabatlarini berish bo'yicha dasturlar ishlab chiqiladi. Bu dasturlar asosida firma maqsadini realizatsiya qilishga qaratiladi.

Tadbirlarini ishlab chiqishda o'qitish va qayta tayyorlash dasturlariga alohida e'tibor qaratiladi. O'qitish va qayta tayyorlash dasturi samaradorligi quyidagi asosiy talablarini bajarish asosida ta'minlanadi:

1. O'qitishni aniq maqsadini belgilash – ishlovchi o'qitish va qayta tayyorlash maqsadi, uning mehnat unumdorligiga ta'sirini tushunib etishi lozim;
2. O'qitish va qayta tayyorlash uchun qulay sharoit va muhitni yaratish;
3. O'qitish va qayta tayyorlashning har bir bosqichida o'rganilgan ko'nikma va tajribalarni amaliyotda foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Bugungi kunda xizmat munosabatlarini oshirib borishni boshqarish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish keng foydalanilmoqda. Bunday dasturlar shaxsning tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturni amalga oshirish natijasida personalda tashkilotga sodiqligi, mehnat unumdorligi va mehnat motivatsiyasi oshadi, shuningdek, kadrlar qo'nimsizligi kamayib boradi.

Mehnatni tashkil etishni optimallashtirishning ijtimoiy-texnik mezonlari quyidagilardan iborat:

- mehnatni turli-tumanligi;
- bajarilayotgan ishga tegishli qarorlarni qabul qilish imkoniyati;
- ishlovchining muqobilligi;
- ishchi operatsiyalari tsiklining optimal muddati;

1 Robins S. Personnel. The Menejment of Humans Resources. N.U, 2012. –S. 17-18.



- ish ritmi va tezligini erkin tanlash;
- ishchilar tomonidan ijtimoiy ko'makni his qilish;
- mehnat operatsiyalarining o'zgarish imkoniyati;
- har bir ishchining mehnat natijalari haqida hisobot tuzimini yaratish;
- kasb va mansabni o'sish imkoniyati.

Shuni e'tirof etish joizki, mehnatni tashkil etishni o'zgartirish dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ishchilarni mustaqilligi, javobgarligini oshirishga, tashkiliy yangiliklarni joriy etishga psixologik jihatdan tayyorligi zarur. Boshqaruv amaliyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, intiluvchan, mehnatga ijodiy yondashuvchi ishchilarni mehnatining mazmunini boyitish bo'yicha o'zgarishiga ijobiy qaraydilar.

G'arb mamlakatlaridagi personalni boshqarish amaliyoti va asosiy kontsepsiyalari tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun yuqoridagi dasturlarni qo'llash mumkin.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillarini tahlil qilish natijasi quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi:

1. Sanoat korxonalarida foydalaniladigan barcha resurslar ichida korxonaning samarali amal qilishga erishish uchun mehnat resurslari hal qiluvchi ahamiyatga ega.
2. O'zbekistonda zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining amal qilish xususiyati sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy omillari xususiyatlariga bog'liq, ya'ni:
 - faoliyatning bozorli tavsifi;
 - tarmoq ichidagi raqobatni kuchliligi;
 - mehnat bozorida ishchi-xodimlari o'rtasida raqobatni yuqoriligi;
 - ishlab chiqarish jarayoniga kiritilgan investitsiya hajmining pastligi.
3. Sanoat korxonalarining mehnat salohiyatidan samarali foydalanish omillarini bazis belgilariga asoslanib uch guruh ajratib ko'rsatish mumkin:
 - mehnat vositalaridan intensiv va sifatli foydalanish bilan tavsiflanuvchi omillar;
 - ishchi kuchi sifati va undan ratsional foydalanish darajasi bilan tavsiflanuvchi omillar;
 - sanoat korxonalarida xodimlarining ijtimoiy va kasbiy faolligi samaradorligi bilan tavsiflanuvchi omillar.
4. Mehnat vositalaridan foydalanish samaradorligi va sifati bilan tavsiflanuvchi omillar quyidagilardan iborat:
 - jonli mehnatni qisqartirish hisobiga ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini oshirish korxonada band bo'lganlar sonini qisqartirishga imkoniyat beradi;
 - yuqori samaradorli va qulay zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, murakkab mehnatni oddiy mehnatga almashtirishga, ishchilarni malakasini oshirishga, jonli mehnat sarfini kamayishini va sanoat xarajatlarini pasayishiga olib keladi;
 - mehnatning chuqur tabaqalanishi kasbiy mahorat va malakani oshirish maqsadida mehnat faolligini oshirish uchun rag'bat vazifasini bajaradi;
 - ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi sanoat korxonasini raqobatbardoshlik qobiliyatini oshiradi.
5. Barcha omillar ichida sanoat korxonasi personalidan foydalanish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi, o'z tabiatiga ko'ra murakkab va shaklan sezilarli omillardan biri ishchi kuchi sifati hisoblanadi.
6. Personalni boshqarishni optimallashtirishda sanoat korxonasi faoliyati samaradorligini ta'minlovchi boshqarish tizimini shakllantirish tushuniladi.

Sanoat korxonalarida personalni boshqarish tizimining asosiy vazifalarga mos holda, sanoat korxonalarida personalni mehnatini tashkil etishni optimallashtirish maqsadiga erishishning usul va vositalarini uch bloki shakllanadi.

1-blok. Sanoat korxonasida mehnat resurslarini shakllantirish quyidagilar orqali erishiladi:

- mehnat resurslarini rivojlantirishda mavjud mehnat resurslarini, iste'molni va istiqbolda ehtiyojini qondirish dasturini ishlab chiqish kabilarni inobatga olish lozim;
- suhbat, sinov, test o'tkazish asosida ishchi kuchini yollash, bunday holda ko'proq qobiliyatli, malakali mutaxassislar tanlanadi;
- intensiv va samarali mehnatni rag'batlantiruvchi ish haqi va qo'shimcha imtiyozlarni belgilash;

2-blok. Mehnat resurslarini rivojlantirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- kasbga yo'naltirish va jamoada ijtimoiy jihatdan moslashish. Bunda ishlovchi korxonada tartibiga, an'analarga tez moslashadi;
- ishlovchilarni mansabini oshirish, boshqa ish o'rinlariga o'tkazish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish haqida ma'muriy qarorlarni qabul qilish uchun ularni faoliyatini baholash;
- korxonada boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida rahbar- kadrlarni tayyorlash;



3-blok. Mehnat hayoti sifatini oshirish quyidagilar asosida ta'minlanadi:

- mehnat majburiyatini kengaytirish va mehnat mazmunini boyitish yo'nalishlarida mehnatni tashkil etishni takomillashtirish;
- mehnat sharoitini takomillashtirish.

Hozirgi davr iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish faqat personalni boshqarishning barcha vazifalarini kompleks holda echish orqali taminlanadi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat: ishchilarni yollash va tayinlash, o'qitish va xizmat vazifalarini oshirish, kadrlar rotatsiyasi, mehnat motivatsiyasini boshqarish, mehnat sharoitini tashkil etish, mavjud nizolar holatini boshqarish, mehnat bo'yicha bahslarni echish kabilarni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, yirik sanoat korxonalarida personalni boshqarishni optimallashtirish tizimini amalga oshirish uchun kadrlar xizmati majburiyati, huquqi hamda vazifalarini kengaytirish lozim. Buni amalga oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- barcha mutaxassisliklar bo'yicha mansub yo'riqnomalarni ishlab chiqish uchun mehnat mazmuni tahlilini amalga oshirish;
- o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni hisobga olgan holda, mehnat resurslariga ehtiyojini rejalashtirish (mehnat bozori konyunkturasi, korxonada faoliyati natijalari, korxonani rivojlantirish rejalari va boshqalar).
- korxonada talablariga ishlovchilarni moslashish rolini oshirish, bu maqsadda kadrlar malakasini oshirish va tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- kadrlar xizmatida yangi vazifalar, ya'ni xodimlar xizmati mansabini oshirishni rejalashtirish, ishlovchi kar'erasini boshqarish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish kabi vazifalarni kiritish;
- personalni boshqarish xizmati majburiyatiga shakllangan ish haqi darajasi, mehnat bozoridagi sharoit, sanoat korxonasi foydaliligi (rentabelligi) tahlil asosida korxonada rag'batlantirish tizimini ishlab chiqishni kiritish maqsadga muvofiq;
- korxonani qayta shakllanishi, molyaviy holati va boshqalarga bog'liq holda ishlovchilarni ishdan bo'shatish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- mehnat resurslaridan foydalanish sohasida muammolarni aniqlash maqsadida (so'rovnomalar, anketa tarqatish va boshqalar asosida) analitik ishlarni olib borish va bu muammolarga rahbarlarning diqqatini jalb etish;
- ishlovchilarni mehnat salohiyatidan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha rahbar-mutaxassislar bilan o'qitish, o'rgatish ishlarini olib borish.

Ishlovchilar soni o'rtacha bo'lgan sanoat korxonalarida uchun personalni boshqaruvchisi lavozimini joriy etish maqsadga muvofiq, ularning majburiyatiga personalni boshqarishni optimallashtirish masalalari kiradi. Kichik sanoat korxonalarida personalni boshqarish korxonada rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Personalni boshqarishni barcha darajalarida sanoat korxonasi mehnat resurslaridan samarali foydalanishni oshirishni ta'minlash uchun boshqarish sohasida maxsus tayyorgarlik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

1. М.Мексон, М.Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. – М.: Издательство "ДЕЛО", 1997. –С. 704.
2. К.Макконелл, С.Брю. Экономика: принципы, проблемы и политика. Т.1. – М.: "ИНФРА-М", 2013. -С. 390.
3. Одегов Ю.Г., Абдурахманов К.Х., Котова Л.Р. Оценка эффективности работы с персоналом: методологический подход: Учебно-практическое пособие. – М.: Издательство "Альфа-Пресс", 2011. – 752 с.
4. Avazov A.J. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish // Diss. iqt. fan. PhD. – T.: TDTU, 2021. 42-b.;
5. Robins S. Personnel. The Menejment of Humans Resources. N.U., 2012. – С. 17-18.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.